

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH (4-SINF  
O‘QISH DARSЛАRI MISOLIDA)**

**M.Jumaniyozova**

*UrDU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

**N.Shermetova**

*UrDU Ta’lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)  
mutaxassisligi 2-kurs magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarga ekologik tarbiya berish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье раскрыты пути и методы экологического воспитания учащихся на уроках чтения в начальных классах.

**Annotation.** In this article, the ways and methods of ecological education of pupils at reading lessons in primary classes are revealed.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, sinfda o‘qish darsi, ekologik tarbiya, ekologik madaniyatni shakllantirish, atrof-muhit, ifodali o‘qish, barkamol shaxs

**Ключевые слова:** начальное образование, урок чтения, экологическое воспитание, формирование экологической культуры, окружающая среда, гармонично развитая личность.

**Key words:** primary education, reading lesson, ecological education, formation of ecological culture, environment, harmoniously developed personality.

Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar barkamol shaxs tarbiyasini maqsad qilib, uni amalga oshiruvchi omil va vositalarni yaratishdan iborat. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi jismonan sog‘lom va aqlan yetuk, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Boshlang‘ich ta’lim uzliksiz ta’limning ajralmas bo‘g‘ini sifatida ana shu maqsad yo‘lida ish ko‘radi.

4-snf o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra o‘quv predmetlari orasida alohida ajralib turadi. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish boshlang‘ich sinflardagi o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. O‘qish darslarining tarbiyaviy vazifalardan biri- o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ona-tabiatga mehr-muhabbatni uyg‘otish ham hisoblanadi.

Ekologik tarbiya deganda, asosan, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllanishi ko‘zda tutiladi. Barkamol insonning muhim fazilatlaridan biri uning ekologik madaniyatidir. Ekologik madaniyatga ega shaxs barcha tirik mavjudodlarning yashash sharoiti, muhiti qonun-qoidalalarini puxta biladi, tabiat muvozanatini saqlashga hissa qo‘sadi, u atrof-muhitga nisbatan beparvo bo‘lmaydi, aksincha uni yaxshilashga,

sog‘lomlashtirishga harakat qiladi. Ekologik madaniyat tushunchasi ham keng qamrovli bo‘lib, inson faoliyatining aksariyat qismini o‘zida mujassamlashtiradi. Ekologik madaniyatda ham insonparvarlik, axloqiy - ma’naviy xislatlar o‘z aksini topadi. Insonparvarlik esa ma’lum ma’noda insonlarning ichki-his-tuyg‘usining ma’lum bir qismini tashkil etuvchi asosiy dunyoqarashdir. Bu dunyoqarashning tarkibiy qismida ekologik madaniyat yotadi.

Ekologik madaniyatda insonning ekologik etikasi, axloqiy va diniy xislatlari ham shakllanadi. Ana shu etik nuqtai-nazardan yondashganda tabiat umumiy uy ekanligi, insoniyat faoliyatiga taalluqli ekanligi unutilmaydi.

Demak, tabiatga madaniy-etuk jihatdan qarash har bir shaxsning, umuman, insonning burchidir. Mana shu masalalarga boshlang‘ich o‘qish darslarida diqqat qaratish muhim va dolzarb sanaladi. Zero, o‘quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish, sodir bo‘layotgan turli xil ekologik hodisalarga munosabat bildira olish salohiyatini tarbiyalash bugungi kunda boshlang‘ich sinflardagi ekologik ta’limni juda muhim yo‘nalishga aylantirmoqda. Binobarin, o‘quvchilarning ekologik ta’limida tabiiy-ilmiy bilimlarni egallahsha eng muhim bosqich boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Insonning tabiatga kelajakdagi munosabati shu davrdan boshlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda bevosita ona-tabiat, yil vasllari bilan bog‘liq mavzularni o‘rganishda bu masalaga bevosita yondashiladi. 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi materiallarni o‘rganish orqali o‘quvchilarga ekologik tarbiya berish maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunda ularning ona tabiat haqidagi tushunchalari kengaytiriladi, shuningdek, ularga inson ham tabiatning ajralmas bir bo‘lagi ekanligi, tabiatni avaylab-asrash o‘zimizni asrash ekanligini uqtiriladi.

Boshlang‘ich sind o‘quvchilariga ekologik tarbiya berish hikoya o‘qish darslarida ham amalga oshirilishi mumkin. Xususan, o‘quvchilarda tabiatga muhabbat va uni asrash tuyg‘usini shakllantirish 4-sinfda o‘qiladigan X.To‘xtaboyevning “Nihollarning nolasi” hikoyasi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu hikoyada ko‘kalamzorlashtirish oyligida o‘quvchilarning xursand bo‘lib ko‘chat ekishlari, ikki yuz niholchaning xursand bo‘lib quyoshga bo‘y cho‘zishlari, ammo keyin bu hihollardan xabar olishmagani, ularning birin-ketin suvsizlikdan nobud bo‘lganliklari zo‘r badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Zero, hikoyada tasvirlangan voqealar o‘quvchilarning kundalik hayotlarida yuz berayotganligi hech kimga sir emas. Ba’zan o‘quvchilar o‘qituvchining tayziqi ostidagina ko‘chatlarni sug‘oradilar, ularni yuzaki parvarishlaydilar. Ammo hikoyada yangi ekilgan nihollarning suvsizlikdan “Suv, suv” deya faryod urib, azoblanib halok bo‘lish o‘rinlarini o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar ongiga nihollarning ham tirik mavjudot ekanliklarini, ularga ham parvarish zarurligini yetkaza olishi darkor. Bunda hikoyani ifodali o‘qish, suvsizlikdan nobud bo‘layotgan nihollar holatini o‘quvchilarga yetkazish muhimdir. Ayniqsa, o‘quvchilar zo‘r ishtiyooq bilan ekkan novcha niholcha ajal bilan qattiq olishishi, har daqiqa uni ekkan bolalarni ko‘zlar to‘rt bo‘lib kutishi o‘rinlariga o‘quvchilarning diqqatini qaratish lozim. “...

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha bu judolikdan dahshatga tushdi-yu, lekin o‘zini yo‘qotmadi. “Yo‘q,- deya chayqalib ketdi novcha niholcha,- men o‘lmasligim kerak, men yashayman, yashayman!”

- Suv!- deb chinqirib yubordi. ....”

Bu hikoyani o‘qish orqali o‘quvchilarda o‘z ishlariga mas’uliyat hissi ham tarbiyalanishiga ahamiyat berish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida yil fasllari bilan bog‘liq mavzularni o‘rganishda ochiq tabiatga ekskursiya uyushtirish ham samarali vositalardan biridir. Darslarni ochiq osmon ostida o‘tkazish o‘quvchini tabiat haqidagi fikrlarni bir qadar tiniqlashtiradi va boyitadi. Chunki kitobda o‘qigan daraxtining tanasiga qo‘l qo‘yishi, suratini ko‘rgan gulni muattar hidini ham tuyushi yoki qayrilgan butaga tirdgovuch berishi, iliq nurlari bilan erkalayotgan quyosha javoban jilmayishi orqali o‘quvchi tabiat bu ona ekanligini to‘liq his qiladi. Zero, eng yaxshi mazmun ham o‘quvchilarning faoliyatiga qo‘shilgandagina ularning ongiga yetib boradi. Yana ham oddiyroq qilib aytganda, o‘quvchi o‘qituvchi hikoya qilib bergenidan ko‘ra o‘zi anglab yetgan voqealarni ko‘proq esda saqlab qoladi. Aslida ham o‘qituvchilarning vazifasi o‘quvchini atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlarni tez va to‘g‘ri idrok etish va vaziyatga muvofiq xulosa yasashga yo‘naltirishdir.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarda ekologiya haqidagi dastlabki tushunchalarni berishda nafaqat “Tabiat” darslari, balki sinfda o‘qish darslari ham muhim ahamiyatga ega. Bu darslarda o‘qilayotgan mavzu doirasida o‘quvchilar ona-tabiat haqida, uning insoniyatning bir bo‘lagi haqidagi tasavvurlari shakllantiriladi va kengaytiriladi. Tabiatga ongli munosabat uyg‘otiladi. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviyatli inson bo‘lib voyaga yetishishlariga katta yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi (Boshlangich ta’lim).- Toshkent, 2017.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.
3. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent, “Yangiyul Poligraph service”, 2020.